

## O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARI RANGLARINING LISONIY-MADANIY XUSUSIYATI (OQ RANG MISOLIDA)

Masharipova Umida,  
Ajiniyoz nomidagi NDPI asistet-o‘qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18409859>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq tillarida rang bildiruvchi leksemalarning lingvomadaniy xususiyatlari “oq” rangi misolida tahlil qilinadi. Rang nomlarining leksik-semantik, ko‘chma va ramziy ma‘nolari, ularning milliy tafakkur va madaniyat bilan bog‘liqligi ochib beriladi. Tadqiqotda “oq” rangining har ikki tildagi o‘xshash va farqli jihatlari qiyosiy tahlil asosida yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** rang leksemalari, oq rang, lingvomadaniyatshunoslik, semantika, o‘zbek tili, qoraqalpoq tili, ramziy ma‘no.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются лингвокультурные особенности цветообозначающих лексем в узбекском и каракалпакском языках на примере белого цвета. Анализируются лексико-семантические, переносные и символические значения цветовых обозначений, а также их связь с национальной культурой и мировоззрением. В работе проводится сопоставительный анализ значений лексемы “оq/aq” в двух родственных языках.

**Ключевые слова:** цветообозначающие лексемы, белый цвет, лингвокультурология, семантика, узбекский язык, каракалпакский язык, символическое значение.

**Annotation.** This article analyzes the linguocultural features of color-denoting lexemes in the Uzbek and Karakalpak languages using the example of the color white. The lexical-semantic, figurative, and symbolic meanings of color terms and their connection with national culture and worldview are examined. A comparative analysis highlights both common and distinctive features of the lexeme “white” in the two Turkic languages.

**Keywords:** color lexemes, white color, linguocultural studies, semantics, Uzbek language, Karakalpak language, symbolic meaning.

**Kirish.** Turkiy tillarda rang bildiruvchi leksemalarning (oq, qora, sariq, ko‘k, yashil va h.k.) qo‘llanish doirasi keng. Bu so‘z birliklari grammatikada sifat so‘z turkumi deb ataladi va u predmetning turli belgilarini bildiradi. Sifat sifatleri leksik ma‘nosi orqali rang-tusni, qiyofani, ko‘rinishni anglatib keladi [1].

Obyektiv dunyoni, tabiatni, hayotni, inson ruhini, uning ichki ruhiy kechinmalarini, o‘y-kechinmalarini, qalb tuyg‘ularini ta‘sirchan tasvirlab yetkazishda, ularni yorqin kartinalarda, badiiy lavhalarda, obrazlarda aks ettirishda sifatlar ularning eng uyg‘un va xilma-xil belgilarini aniqlab, zarur badiiy tasvir vositasi bo‘ladi. Badiiy asarlarda sifatlar so‘z ustalariga so‘z san‘atining qat‘iy talablarini bajarishda imkoniyatlar ochadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Jahon tilshunosligida belgi bildiruvchi leksemalar birmuncha darajada o‘rganilgan [2]. Turkiy tillarda ham bu masalaga bir qancha asarlar bag‘ishlangan, o‘zbek tilshunosligida hajmga oid, subyektiv baho bildiruvchi sifatlar maxsus tarzda o‘rganilgan [3]. Qoraqalpoq tilshunosligida mashhur shoir I.Yusupov asarlarida sifatning stilistik vazifasi maxsus tadqiq qilingan [4].

Biroq hozirgacha badiiy asarlardagi belgi bildiruvchi leksemalarning leksik-

semantik va lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tadqiqot ishlari olib borilmadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy, leksik-semantik va lingvomadaniy tahlil metodlaridan foydalanildi. O‘zbek va qoraqalpoq tillarining izohli, etimologik hamda omonimlar lug‘atlaridagi materiallar asosida rang bildiruvchi leksemalarning ma’no doiralari o‘rganildi. Shuningdek, badiiy matnlardan olingan misollar orqali “oq” rangining kontekstual va ramziy qo‘llanilish xususiyatlari aniqlab berildi.

**Tahlillar va natijalar.** Har bir millat madaniyatidagi rang dunyosi o‘ziga xos ramziy ma’noga ega bo‘ladi, ya’ni rang millat madaniyatini tanituvchi omildir. Ayniqsa xalqimizda diniy nuqtai nazardan qaraydigan belgilari orqali hayotdagi yaxshilik va yomonlik, ulug‘lik va yovuzlik odamgarchilikning har xil xususiyatlarini obrazli tarzda tasvirlash yaqqol ko‘rinadi. Izohlash qiyin bo‘lgan tuyg‘ular ranglar olamining o‘ziga xos ramziy ma’nolari orqali yetkaziladi.

Rang bildiruvchi polisemantik leksemalarning paydo bo‘lgan qo‘shimcha ma’nolari tayanch ma’no asosida paydo bo‘lgan, o‘zining semantik strukturasi shu ma’noning bir qismini o‘zlashtirgani uchun qo‘shimcha ma’no tayanch ma’noning assotsiativ tematik maydonidan chiqib keta olmaydi.

Rang bildiruvchi leksemalarning yagona xususiyati, bu uning belgi ma’nosiga ega bo‘lishi. Shunday belgilardan biri ularning leksik-semantik guruhlarining qo‘llanilish xususiyatlari hisoblanadi.

Qoraqalpoq tilidagi rang bildiruvchi leksemalarning leksik-semantik guruhlariga uning quyidagi semantik belgilari kiradi: narsalarning, buyumlarning tur-tusini, rangini bildiruvchi leksemalar: aq/oq, qara/qora, kók/ko‘k, qo‘nir/qo‘ng‘ir, sur/sur, qizil/qizil, sari/sariq, jasl/yashil va yana boshqalar.

O‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi rang bildiruvchi leksemalarning leksik-semantik guruhlari qo‘llanilish xususiyatlariga, belgilariga, odamlarga, narsalarga, buyumlarga xos semantik belgilarga, narsalarning, buyumlarning, hayvonlarning har xil harakatlariga, fe’l-atvoriga, va yana boshqa. belgilariga tegishli semantik belgilarni bildiradi.

Biz o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi rang bildiruvchi so‘zlarning semantikasini tahlil qilamiz.

O‘zbek tilida “oq” so‘zi O‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagi asosiy ma’nolarda beriladi (qisqacha va izohli tarzda):

**OQ I.** Qor, sut, paxta rangiga o‘xshash rang; qarama-qarshisi — qora.

Masalan: oq qog‘oz, oq ko‘ylak.

**OQ II.** Toza, pokiza, halol, begunoh ma’nosida.

Masalan: oq niyat, oq vijdon, oq yo‘l.

**OQ III.** Suyuqlikning oqishi, bir tomondan ikkinchi tomonga harakatlanishi.

Masalan: suv oqdi, yosh oqdi, qon oqdi.

**OQ IV.** Siyosiy-ijtimoiy ma'noda: ma'lum tarixiy davrda qarama-qarshi kuchlarni bildiruvchi atama.

Masalan: oq gvardiyachilar.

**OQ V.** Ko'chma ma'noda — omadli, ezgu, ijobiy.

Masalan: ishi oq bo'ldi.

**OQ – qor**, sut rangidagi. Bir o'ram oq qog'oz sotib oldim.

M.Sadiqova o'z ilmiy ishida quydagicha keltirgan:

**O'zbek tilida sifatlar, jumladan rang bildiruvchi sifatlar ham semantik serma'nolilik xususiyatiga ega.1. Oq.**Bu so'z aslida rang bildiradi va bunda **paxta, sut, qor** tulari ifodalanadi.Masalan:*Oq doka ro'molga o'ralgan bir kalla ko'rindi* (Mirzakarim Ismoiliiy, *Farg'ona tong otguncha*).**Oq** so'zi o'zbek tilida ko'pincha **qora** so'ziga, ba'zan esa **qizil** so'ziga antonim sifatida qo'llanadi. Bu so'z ayrim hollarda rangsiz predmetlarning sifatlovchisi bo'lib hamishlatiladi: *oq aroq, oq pol*. Masalan: *Mana birdan moviy suvlarning oq ko'pikka o'raldi tanu* (Uyg'un).**Oq** so'zi insonning rang-tusi, tashqi belgisi sifatida ham keng qo'llanadi: *Oq yuzli qiz. Uning oq qo'llarida qo'shaqo'sh oltin uzuklar*. Biroq bu o'rinda **oq** nisbiy ma'noda qo'llangan bo'ladi. Chunki inson badanining oq rangligi bilan sof oq tus o'rtasida ma'lum darajada farq mavjud.**Oq** so'zi o'zbek tili lug'at tarkibining eng qadimgi va asosiy so'zlaridan biridir. Buni yozma yodgorliklarda uchraydigan til faktlari ham tasdiqlaydi

Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan, bu sifat a:q tarzida talaffuz qilingan.“**Devonu lug'otit turk**”da: “*Oq (ap-aq) — oq, oppoq*” (ESTYA, I,116; Devon I, 109) [5]. O'zbek tilida a unlisi á unlisiga almashgan: a:q > oq > áq tarzida Mahmud Qoshg'ariy “chigilcha” deb ko'rsatgan bu so'z keyingi davrlarda o'zbek tilida uchramaydi. Lekin u ba'zi turkiy tillarda saqlanib qolgan.Masalan:Yoqut tilida: öröc — oq örök kööh — och ko'k tarzida uchraydi.(59-bet)

Eski o'zbek tilida “oq”ma'nosini ifodalovchi \*bayzo, bayoz, bayzogun, kofur\* kabi “arab va fors so'zlari” ham ishlatilgan.Ushbu so'zlar asosan hissiy holat, nafas chiqarish yoki his-tuyg'u ifodasi sifatida qo'llangan va o'zbek adabiy tiliga “moslashtirib” kirib kelgan.

**OQ – nishab tomonga to'xtovsiz harakatlaning** (suyuqlik haqida). Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q (maqol) [6].

Qoraqalpoq tilida esa,aq leksemasi quydagicha ifodalanadi.

**AQ** kel. 1. Appaq, gúrishtey, jaqsı, taza. Yoshıp kewliń shadlık artıp, *Aq* qağazğa qálem tartıp (Á. Shamuratov). – **OQ** sif. 1. Oppoq, guruchday, yaxshi, toza. Yoshib ko'ngling shodlik ortib, **Oq** qog'ozga qalam tortib (A. Shamuratov).

2. Haq, hadal, jamanlıgı joq, kewlinde girbińi joq, qılmıssız, ayıpsız. Kewili *aq*, qalpağı qara (I.Yusupov). – Haq, halol, yomonligi yo'q, ko'nglida g'ubori yo'q, jinoyatsiz, aybsiz. Ko'ngli **oq**, qalpog'i qora (I.Yusupov).

3. Aǵarǵan, asqatıq. Mina jarmaǵa *aq* qatıp ishiw kerek (Sh.Seyitov).

– Oqargan, achchiq. Mana yormaga **oq** qotib ichish kerak (Sh. Seyitov).

4. Daq, girbiń, kir. Kózge *aq* túsiw. Baha bermey *aq*-qaraǵa, Túspey-aq qarańǵı jıraǵa (A. Dabilov). – Dog‘, g‘ubor, kir. Ko‘zga **oq** tushish. Baho bermay oq-qoraga, Tushmay-oq qorong‘i jarga (A. Dabilov).

◊ *Aq eniw* - aq túsiw, shashi aǵarıw, bireń-sarań shashlardıń payda bolıwı, Sakalına *aq* ene baslaǵan adam kárwan basshıǵa qaradı (B. Seytekov). – *Oq kirish* – oq tushish, sochi oqarish, bir-yarim sochlarning paydo bo‘lishi, Soqoliga oq kira boshlagan odam karvon boshliqqa qaradı (B. Seytekov).

*Aq túsiw* – daq túsiw, kir túsiw. Tek sennen ayra tuskende, Men bolarman ǵamǵa bende, Shashlarima *aq* tuskende, «Umıttı dep eller meni, Qıynamasın jeller meni (I. Yusupov). – *Oq tushish* – dog‘ tushish, kir tushish. Faqat sendan ayro tushganda, Men bo‘larman g‘amga banda, Sochlaringma *oq tushganda*, "Unutdı deb ellar meni, Qiynamasın yellar meni (I. Yusupov).

*Aq patsha* – Qazaqstan hám Orta Aziyada jasawshı túrk tilles xalıqlardıń kópshiligi Rossiya Imperatorın *Aq* patsha dep ataǵan. *Aq* patshanıń hámirine muwapıq márdikarǵa alındıń, jaqında keteseń (Ád. xrest.). – *Oq podsho* - Qozog‘iston va O‘rta Osiyoda yashovchi turkiy tilli xalqlarning ko‘pchiligi Rossiya Imperatorını *Oq podsho* deb atagan. *Oq* podshoning amriga muvofiq mardikorlikka olinding, yaqında ketasan (Ad. xrest.).

*Aq túye* – biykarlaw, moyınlamaw, kórgen-bilgenin aytpaw mánisinde jumsaladı. *Aq túyeni kórđiń be?* dep soradı jolawshıdan ólikti kómip atırǵan urılar (Qq. x. e.).

*Oq tuya* – inkor etish, tan olmaslik, ko‘rgan-bilganini aytnaslik ma‘nosida ishlatiladı. *Oq tuyani ko‘rdingmi?* deb so‘radi yo‘lovchidan o‘likni ko‘mib turgan o‘g‘rilar (QQ. x. e.).

*Aq túyedey* - aq túyege usaǵan, aq túyege megzes. Qara boran, ashshı ayaz, Jerler miytin bolıp qatqan, Toǵaylar da jamlıp qar. *Aq túyedey shógip jatqan* (J. Aymurzaev) [7]. *Oq tuyaday* – oq tuyaga o‘xshagan, oq tuyaga o‘xshagan. Qora bo‘ron, achchiq ayoq, Yerlar metin bo‘lib qotgan, To‘qaylar ham yopilib qor. *Oq tuyaday cho‘kib yotgan* (J. Aymurzayev).

Qoraqalpoq tilidagi *Aq/Oq* so‘zining: "Qoraqalpoq tilining omonimlar lug‘ati"dagi ko‘rinishi:

**AQ I** Qardıń, súttiń, pordıń túrindey reń. Mısalı: Átirap *aq* qarǵa malınǵan, kózleriń qamasadı (Á.Atajanov). Durıs ayırıw ushın *aqtı*, qarani, Ilgir zeyin sınshı kerek (I. Yusupov).

**OQ I** – Qorning, sutning, bo‘rning turidek rang. Masalan: Atrof oq qorga belangan, ko‘zlaring qamashadi (A.Atajanov). To‘g‘ri ajratish uchun oqni, qorani, Ziyrak zehnlı sinchi kerak (I. Yusupov).

**AQ II** Taza, hadal, pák: Xat túspegen qaǵazdayın *aq* edim ... (I. Yusupov). **OQ II** Toza, halol, pok: Xat tushmagan qog‘ozdayın oq edim... (I. Yusupov).

**AQ III** Suwdiń óz arnası menen tómen qaray jiljıwı; suw, jas, ter, qan, silekey h.t.b. suyuq zatlardıń sorǵalawı, tógiliwi, quyılıwı: Dárya suwı móldirep *aq...*(A.Áliev) [8].

**OQ III** Suvning o‘z o‘zani bo‘ylab pastga tomon siljishi; suv, yosh, ter, qon, shilliq va h.k. suyuq moddalarning oqishi, to‘kilishi, quyilishi: Daryo suvi tiniq oq.. (A.Áliev)

**OQ** – nishab tomonga to‘xtovsiz harakatlaning (suyuqlik haqida). Oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q (maqol) [6].

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, “oq” rang leksemasi o‘zbek va qoraqalpoq tillarida nafaqat rangni bildiruvchi belgi sifatida, balki muhim lingvomadaniy birlik sifatida ham namoyon bo‘ladi. Har ikki tilda “oq” rangi poklik, halollik, ezgulik va ijobiylik ramzi bo‘lib, milliy tafakkur va madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq. Shu bilan birga, ayrim semantik va frazeologik qo‘llanishlarda tillar o‘rtasidagi o‘ziga xos farqlar ham kuzatiladi. Bu esa rang leksemalarining til va madaniyat tutashgan nuqtasida muhim tadqiqot obyektini ekanini ko‘rsatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ҳазирги қарақалпақ әдебий тилиниң грамматикасы. Нөкис: «Билим»,1994. – 140-б.
2. Шрамм А.Н. Очерки по семантике качественных прилагательных. – Л. Изд-во ЛГУ. 1979. – 136 с.
3. Абдурахманов И. Полисемия иантонимия прилагательных в современном узбекском литературном языке. Автореф.дис...канд. филол наук. Ташкент, 1973. – 24 с.
4. Юсупова Б.Т. Стилистическое использование прилагательных в художественном произведении. Автореф.дис...канд. филол наук. – Нукус, 2001. – 22с.
5. Махмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. I т. Индекс. Тошкент,1960. 109-б.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Тошкент: Университет, 2000. 262-б.
7. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. I т. Нөкис: Qaraqalpaqstan,1982. 68-б.
8. Пахратдинов Қ.,Бекбергенов Қ. Қарақалпақ тилиниң омонимлер сөзлиги. Нөкис: Qaraqalpaqstan, 2015, 36-б.